



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	

TALABALARDA LISONIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Odiljonova Kamola Abduvosit qizi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Andijon davlat pedagogika instituti o'zbek tili
va adabiyoti kafedrası v.b.dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishda psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari tahlil qilinadi. Lisoniy tafakkur rivojlanishining psixologik va lingvistik asoslari yoritilib, ta'lim jarayonida samarali qo'llaniladigan metod va usullar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashini shakllantirishda psixolingvistik yondashuvning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: lisoniy tafakkur, psixolingvistika, didaktik tamoyillar, nutq faoliyati, ta'lim jarayoni, kommunikativ kompetensiya, tafakkur rivoji, metodika.

Abstract: This article examines the didactic principles of a psycholinguistic approach to developing students' linguistic thinking. The psychological and linguistic foundations of linguistic thinking development are analyzed, along with effective methods and techniques used in the educational process. Special attention is given to the development of students' speech activity and independent thinking. The results of the study contribute to improving the effectiveness of education.

Key words: linguistic thinking, psycholinguistics, didactic principles, speech activity, educational process, communicative competence, thinking development, methodology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются дидактические принципы психолингвистического подхода к формированию языкового мышления у студентов. Освещаются психологические и лингвистические основы развития языкового мышления, а также анализируются эффективные методы и приемы, применяемые в образовательном процессе. Особое внимание уделяется развитию речевой деятельности студентов и формированию их самостоятельного мышления.

Ключевые слова: языковое мышление, психолингвистика, дидактические принципы, речевая деятельность, образовательный процесс, коммуникативная компетенция, развитие мышления, методика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi inson shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga, talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy tafakkur va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Bugungi globallashuv davrida bilimning yangilanish tezligi, axborot oqimining kengayishi, raqamli muhitning keng qamrovliligi inson tafakkurining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini talab etmoqda. Shu bois, ta'lim jarayonida shaxsning lisoniy tafakkurini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixolingvistikaning markaziy masalalaridan biriga aylandi. Lisoniy tafakkur - bu inson tafakkurining tilda ifodalangan, so'z, gap va matn darajasida modellashtirilgan shakli bo'lib, u tildan foydalanish jarayonida kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Psixolingvistika fanining shakllanishi bilan til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi yangi nazariy asosda talqin etila boshlandi. Agar klassik lingvistika til tizimini strukturaviy birliklar darajasida o'rgangan bo'lsa, psixolingvistika tilni inson tafakkurining faol shakli, nutq hosil bo'lishi va nutqni idrok etish jarayonidagi psixik mexanizmlar tizimi sifatida tadqiq etadi. Bu yo'nalish til o'rganish, nutqiy kompetensiyani shakllantirish va kommunikativ faoliyatni rivojlantirish jarayonini chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi. Shu bois, psixolingvistik yondashuv asosida qurilgan ta'lim talabalarning nutqiy faoliyatini, tafakkur madaniyatini, tilni o'zlashtirishning kognitiv mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Oliy ta'lim tizimida talabalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi - shaxsning aqliy, ma'naviy va nutqiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, o'z fikrini mantiqan asoslab bera oladigan, ijtimoiy faol va kommunikativ jihatdan kompetent insonni shakllantirishdir. Shu maqsadga erishishda psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillarini aniqlash, ularni amaliyotga tatbiq etish zaruriyatga aylandi. Bu jarayon pedagogik psixologiya, kognitiv tilshunoslik, neyropsixologiya va metodika fanlari bilan uzviy aloqada olib boriladi.^[1]

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirish faqat til bilimlarini o'zlashtirish bilan chegaralanmaydi, balki ularni o'ylash, tahlil qilish, muloqotda nutqiy vaziyatga mos fikr bildirish, ijtimoiy-psixologik moslashuv qobiliyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Psixolingvistik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim lisoniy tafakkur mexanizmlarini chuqurroq anglash, nutqiy faoliyatni ongli boshqarish, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning o'zaro aloqasini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuv muammosi tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan bo'lib, mazkur yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, psixolingvistik nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari chuqur o'rganila boshladi.

Psixolingvistik yo'nalishning rivojlanishida Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan generativ grammatika nazariyasi muhim o'rin tutadi. U tilni inson ongiga xos tug'ma qobiliyat sifatida talqin qilib, til va tafakkur munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi asosida nutq va tafakkur birligi, ularning rivojlanish jarayonidagi o'zaro ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.^[2] Olimning fikricha, tafakkur nutq orqali shakllanadi va rivojlanadi, bu esa ta'lim jarayonida psixolingvistik yondashuvning ahamiyatini yanada oshiradi. Bundan tashqari, Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasida til va tafakkurning bosqichma-bosqich shakllanishi yoritilgan bo'lib, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan.

Psixolingvistika doirasida nutq faoliyatini o'rganishda Aleksey Leontyev hamda Alexander Lurialarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nutq faoliyatining psixologik mexanizmlarini, uning hosil bo'lish va idrok etilish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilganlar. Didaktik nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida lisoniy tafakkurni rivojlantirish masalalari ko'plab pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, kommunikativ yondashuv asosida til o'qitish nazariyasi rivojlanib, unda o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bu borada zamonaviy metodikalarda interfaol usullar, muammoli ta'lim texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Til va tafakkur masalasi insoniyat tafakkuri tarixida eng qadimiy falsafiy muammolardan biridir. Qadimgi yunon faylasuflari - Aflotun va Arastu tafakkurni til bilan uzviy bog'liq holda tahlil etganlar. Keyinchalik Gumboldt, Sossyur, Potebnya, Vygotskiy, Luriya, Leontyev kabi olimlar til va tafakkurning o'zaro ta'sir mexanizmlarini ilmiy asoslab berganlar.^[3] Ayniqsa, L.S. Vygotskiyning "tafakkur so'zda amalga oshadi" degan g'oyasi psixolingvistika fanining shakllanishida buriilish yasagan. Bu qarashga ko'ra, til inson tafakkurining vositasi, tashqi va ichki nutq esa tafakkur jarayonining ikki shaklidir.

Psixolingvistika fanining predmeti inson nutq faoliyati mexanizmlarini o'rganishdan iborat bo'lib, u nutq hosil bo'lishi, nutqni qabul qilish, tushunish, qayta ishlash va xotirada saqlash kabi bosqichlarni tahlil etadi. Bu jarayonlarning barchasi talabalarda lisoniy tafakkur shakllanishining psixik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Tilni o'zlashtirish jarayonida inson idroki, diqqat, eslab qolish, assotsiatsiya va tafakkur kabi kognitiv jarayonlar faol harakatga kirishadi.

Lisoniy tafakkur - bu nafaqat so'z boyligining kengligi yoki grammatik qoidalarni bilish, balki fikrlashning til orqali modellashtirilgan shaklidir. Bu jarayonda inson ongida nutqiy birliklar bilan bog'liq semantik strukturalar hosil bo'ladi, tushunchalar kategoriyalanadi, fikrlar mantiqiy bog'lanadi va tilda aks etadi. Talaba tildan foydalangan holda nafaqat muloqot qiladi, balki tafakkurini ham tashkil etadi, o'z fikrini verbal shaklda ifodalaydi, uni mantiqan tartiblaydi va o'zgalar fikrini idrok etadi. Tilni o'rganish va tafakkurni shakllantirish o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, har qanday yangi so'z, grammatik model yoki nutqiy konstruktsiya talabaning ongida yangi kognitiv tuzilma paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.^[4]

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, bu jarayon til materialining ichki kodlashtirilishi, semantik tarmoqlarning faollashuvi, konnotativ va denotativ ma'nolarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali amalga oshadi. Shu tariqa, lisoniy tafakkur tildagi birliklar orqali fikrlash faoliyatining murakkab shaklini namoyon etadi. Talabalarda lisoniy tafak-

kurni shakllantirishning muvaffaqiyati ularning psixologik tayyorgarligi, idrokning faolligi, motivatsiya darajasi va kommunikativ ehtiyojlariga bog'liqdir. O'quv jarayonida o'qituvchi tomonidan yaratilgan psixologik muhit, interfaol usullar, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va kommunikativ mashg'ulotlar tafakkur faolligini oshiradi. Bunday sharoitda til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkur vositasiga aylanadi.

Tafakkurning psixolingvistik asoslarini o'rganishda nutq hosil bo'lish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir insonda nutq hosil bo'lishi ikki bosqichda amalga oshadi: ichki va tashqi bosqich. Ichki bosqichda fikr konsepsiyasi, semantik model va maqsad shakllanadi; tashqi bosqichda esa bu fikr til birliklari orqali ifodalanadi. Talabada lisoniy tafakkurning shakllanishi ana shu ikki bosqichning uyg'un faoliyati natijasidir. Tilni o'zlashtirish jarayonida inson tafakkurining shakllanishi Vygotskiy tomonidan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi asosida izohlangan. Unga ko'ra, inson yangi bilimni faqat o'qituvchi yoki kattalar yordamida emas, balki ijtimoiy muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Har bir talaba o'zining kognitiv imkoniyatlari darajasida bilimni qabul qiladi, tildagi birliklarni ongida semantik modellar shaklida tashkil etadi. Bu jarayonda psixolingvistik qonuniyatlar - nutqni hosil qilishning motivatsion, semantik, grammatik va artikulyatsion bosqichlari uyg'un faoliyat ko'rsatadi.

Lisoniy tafakkur shakllanishi, avvalo, nutq faoliyatining barcha turlarida - tinglab tushunish, o'qish, yozish va so'zlash jarayonlarida o'z aksini topadi. Nutq faoliyati inson tafakkurining tashqi ifodasi bo'lib, til birliklari orqali kognitiv faoliyatni modellashtiradi. Talaba nutqiy faoliyat davomida til tizimining sintaktik, morfologik va semantik qonuniyatlarini ongli ravishda qo'llaydi. Shu sababli, psixolingvistika nutqni hosil qilish va idrok etish jarayonini nafaqat lingvistik, balki psixik faoliyat sifatida ham o'rganadi.

Talabalarda lisoniy tafakkurni rivojlantirish uchun ularning nutqiy tajribasi kengaytirilishi, nutqni rejalashtirish, fikrni mantiqan bog'lash, kontekstual moslikni ta'minlash ko'nikmalari shakllantirilishi zarur. Tilni o'rgatishda so'zning shakliy tuzilishi bilan bir qatorda, uning semantik maydonini, konnotativ ma'nosini, pragmatik vazifasini ham anglash muhimdir. Bularning barchasi tafakkur jarayonining boyishiga, tilda fikrni ongli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, lisoniy tafakkur shakllanishi insonning psixik holatlari, emotsional barqarorligi va motivatsiya darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Psixologik jihatdan ijobiy muhitda, ishonchli kommunikatsiya sharoitida talaba o'z fikrini erkin ifodalaydi, til orqali tafakkurini shakllantirish jarayoni tabiiy tus oladi. Aksincha, tashvish, stress yoki muloqotdagi qo'rquv tafakkurning faolligini pasaytiradi, nutqiy ifodaning erkinligiga to'sqinlik qiladi. Shu boisdan, psixolingvistik yondashuv doirasida didaktik jarayonning emotsional komponentiga ham alohida e'tibor berish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, tafakkur nutqdan avval shakllanadi, biroq tilsiz mavjud bo'la olmaydi. Har bir so'z inson ongida nafaqat ma'no sifatida, balki assotsiativ tasavvur, emotsional obraz va tajriba bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi. Shuning uchun tilni o'rgatishda talabada so'zlarning semantik tarmog'ini, ularning kontekstual ishlatilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Fikrni tilda modellashtirish jarayoni - bu tafakkurning tildagi ifodasidir. ^[5] Demak, tilni o'rgatish jarayoni aslida tafakkurni rivojlantirish jarayonidir. Oliy ta'limda bu tamoyilni samarali amalga oshirish uchun interfaol metodlardan keng foydalanish, talabani o'rganilayotgan tilni real kommunikatsiya vositasi sifatida his qilishiga erishish kerak. "Dialogik o'qitish", "fikrlar muhokamasi", "muammoli muloqot" kabi metodlar lisoniy tafakkurni shakllantirishda ijobiy natija beradi. Chunki bu metodlarda talabalar nafaqat til birliklarini qo'llashadi, balki ularni tafakkur jarayonida qayta ishlaydi, semantik bog'lanishlarni mustahkamlaydi, tildan ijodiy foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Talabalarda lisoniy tafakkur shakllanishi o'qituvchi faoliyatining psixolingvistik jihatdan tashkil etilishiga ham bog'liqdir. O'qituvchi o'z nutqi, izohi, tahliliy savollari orqali talabani fikrlashga undaydi, uning tafakkur jarayonini rag'batlantiradi. Shuningdek, talabani javobini tinglash, uni tahlil qilish, fikrini rivojlantirish imkoniyatini berish o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini namoyon etadi. Shu tarzda ta'lim jarayonida til, tafakkur va muloqot o'zaro uyg'unlikda kechadi. Lisoniy tafakkur shakllanishining psixologik mexanizmlari inson ongida kechadigan kognitiv jarayonlar majmuasi bilan izohlanadi. Unga idrok, xotira, diqqat, tafakkur, assotsiat-siya va tasavvur jarayonlari kiradi. Bu jarayonlar tilni o'zlashtirishda, fikrni shakllantirishda va nutqni ifodalashda o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatadi. Har bir talaba til materialini qabul qilayotganda uni o'zining mavjud bilim tizimiga joylashtiradi, u bilan assotsiat-siya hosil qiladi, yangi ma'nolar yaratadi va bu orqali tafakkurini boyitadi.

Idrok lisoniy tafakkurning boshlang'ich bosqichini tashkil etadi. Talaba yangi til birliklarini idrok etar ekan, ularni o'z tajribasiga, his-tuyg'ulariga, ilgari o'zlashtirilgan ma'lumotlarga bog'laydi. Shu tariqa so'z, gap, matn yoki ohangning semantik qiymati shakllanadi. Diqqat esa bu jarayonni boshqaruvchi psixik mexanizm sifatida ishlaydi: u talabani qaysi til birliklariga e'tibor berishini, qanday semantik aloqalarni muhim deb hisoblashini belgilaydi.



Diqqatning barqarorligi va taqsimlanishi talabaniing tilni ongli o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Xotira lisoniy tafakkurning asosiy tayanchi hisoblanadi. Tildagi birliklarni eslab qolish, ularni kerakli paytda esga tushirish, nutq jarayonida faol qo'llash xotiraning verbal komponenti orqali amalga oshadi. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'z va iboralar inson ongida semantik tarmoqlar shaklida saqlanadi. Shu tarmoqlarning faollashuvi natijasida so'z esga tushadi, gap tuziladi, fikr hosil bo'ladi. Demak, xotira nafaqat saqlash, balki tafakkur jarayonining faol ishtirokchisidir.

Tafakkur esa tilni idrok etish va undan foydalanish jarayonida shakllanadigan kognitiv faoliyatdir. Inson so'z orqali umumlashtiradi, taqqoslaydi, tahlil qiladi, sintez qiladi. Har bir til birligi inson ongida tushunchani, har bir gap esa fikrni aks ettiradi. Shu bois, tilni o'rganish jarayoni tafakkur jarayonining o'zgarishini, yangilanishini anglatadi. Talabalarda tafakkurning rivojlanishi ularning so'z boyligi, semantik tahlil qilish ko'nikmasi, mantiqiy fikrlash darajasi bilan belgilanadi. Tasavvur lisoniy tafakkurning ijodiy komponentidir. Talaba so'z orqali tasviriy obrazlar yaratadi, ularni kontekst bilan bog'laydi, nutqni obrazli qiladi. Tasavvur orqali u yangi ifoda vositalarini topadi, tildan ijodiy foydalanadi. Shu sababli psixolingvistik yondashuv talabalarning tilni o'zlashtirish jarayonida tasavvur va emotsiyani rag'batlantirishni ham nazarda tutadi. Lisoniy tafakkur shakllanishida assotsiatsiyalar mexanizmi alohida o'rin tutadi. Inson har bir yangi so'zni eshitganda yoki o'qiganda, uni ilgari bilgan ma'nolar bilan bog'laydi. Bu bog'lanish semantik tarmoqlarni faollashtiradi, tilni ongda qayta kodlashtiradi. Shu sababli o'qituvchi yangi materialni talabaniing mavjud bilimlari bilan bog'lab tushuntirsa, u samaraliroq o'zlashtiriladi.

Nutqni hosil qilish mexanizmi psixolingvistika nuqtayi nazaridan bir necha bosqichda amalga oshadi. Avvalo, motivatsiya hosil bo'ladi - ya'ni insonda biror narsani aytish, ifodalash istagi paydo bo'ladi. Keyin semantik rejalashtirish bosqichi keladi - bu jarayonda fikrning mazmuni shakllanadi. So'ngra grammatik va fonetik kodlashtirish bosqichi amalga oshadi, bunda so'zlar tanlanadi, ularning grammatik shakli aniqlanadi, so'ng talaffuzga tayyorlanadi. Nihoyat, artikulyatsion bosqichda fikr tovush shaklida ifodalanadi. Bu bosqichlarning barchasi tafakkur jarayonining nutqqa aylanishini ta'minlaydi. Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirish jarayonida bu bosqichlarni ongli ravishda tushuntirish muhim. Chunki talaba nutqni qanday shakllantirishini bilgan holda, o'z tafakkurini ham boshqarishni o'rganadi. Shu tariqa psixolingvistik yondashuv o'quvchi yoki talabani o'quv jarayonining passiv ob'ekti emas, balki faol sub'ekti sifatida shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tafakkurning psixologik mexanizmlarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonida turli psixolingvistik mashqlar - so'z assotsiatsiyasi, ma'no zanjiri, semantik xarita tuzish, kontekstual tahlil, fikrni qayta kodlash kabi mashqlarni qo'llash mumkin. Bunday mashqlar talabalarning idrok, xotira va tafakkur jarayonlarini faollashtiradi, ularning tilni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, psixolingvistik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabaniing ichki tafakkur mexanizmlarini faollashtiradi, ularni o'z fikrini mustaqil shakllantirishga o'rgatadi. Bu yondashuv o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni jonlantiradi, ta'lim jarayonini sub'ektivlashtiradi, ya'ni talaba o'z bilimining yaratuvchisiga aylanadi. Shu tariqa psixolingvistik tamoyillar asosida qurilgan o'qitish jarayoni inson tafakkurining tabiiy qonuniyatlariga mos bo'ladi. Psixolingvistik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni insonning nutqiy faoliyati va tafakkur mexanizmlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, u didaktikaning zamonaviy prinsiplari bilan bevosita bog'liqdir.

Oliy ta'lim tizimida lisoniy tafakkurni shakllantirish uchun dars jarayonini faqat lingvistik kompetensiya emas, balki kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish zarur. Bunda asosiy maqsad talabaniing tilni o'zlashtirish jarayonida faol fikrlovchi, tahlil qiluvchi, ijodiy yondashuvchi shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdir.

Didaktik tamoyillarning psixolingvistik mohiyati shundaki, o'qitish jarayoni nafaqat bilim berish, balki tafakkurni faollashtirish, nutqiy mexanizmlarni harakatga keltirish, semantik tarmoqlarni kengaytirish, til orqali muloqot va tafakkur o'rtasidagi ichki aloqani mustahkamlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, psixolingvistik yondashuvning asosiy didaktik tamoyillari quyidagi ilmiy yo'nalishlar bilan belgilanadi: ongli faollik, motivatsion moslik, kommunikativ yo'naltirilganlik, kognitiv integratsiya va refleksiv o'qitish prinsipi.

Ongli faollik tamoyili shuni nazarda tutadiki, talaba tilni faqat yod olish orqali emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, o'z tafakkur jarayoniga tatbiq etish orqali o'zlashtiradi. O'qituvchi bu jarayonda til hodisalarini ongli tarzda anglash, ularning semantik va sintaktik bog'lanishlarini izohlash, til birliklarining nutqdagi real vazifasini ko'rsatish orqali talaba tafakkurini faollashtiradi.

Ongli faollik talaba nutqini avtomatik emas, tafakkurga asoslangan, maqsadli va mantiqan izchil bo'lishiga yordam beradi. Motivatsion moslik tamoyili esa ta'lim jarayonida shaxsiy qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni hisobga olishni taqozo etadi. Psixolingvistik jihatdan qaralganda, har qanday nutq faoliyati ichki motiv bilan bog'liq bo'ladi. Talabada o'rganilayotgan til orqali fikr bildirish istagini uyg'otish, til materialining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, uni amaliy muloqot bilan bog'lash o'quv jarayonini jonlantiradi. Bu esa tafakkur faoliyatini tabiiy shaklda faollashtiradi.

Kommunikativ yo'naltirilganlik tamoyili o'qitish jarayonini real muloqotga yaqinlashtirishni nazarda tutadi. Tilni o'rganish jarayonida talabalar nutqiy vaziyatlarga kirishadi, fikr almashadi, bahs yuritadi, o'z nuqtayi nazarini asoslaydi. Bu jarayonlarda til vositasi emas, maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu tarzda, tafakkur tildan foydalanish orqali amalda rivojlanadi. Kommunikativ yondashuv lisoniy tafakkurni amaliy kontekstda shakllantirishning eng samarali yo'lidir.

Kognitiv integratsiya tamoyili psixolingvistika va didaktikaning uzviy uyg'unlashuvini ifodalaydi. Bu yondashuvda tilni o'rganish faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish emas, balki inson ongidagi kognitiv strukturalarni faollashtirish, yangi tushunchalarni o'zlashtirish, ma'no yaratish jarayonlarini rag'batlantirish orqali amalga oshadi. Talaba til birliklari orqali fikrlashni, umumlashtirishni, tahlil qilishni o'rganadi. Shu bilan birga, bu tamoyil o'qitish jarayonini faqat lingvistik emas, balki mantiqiy, psixologik, madaniy kontekstda olib borishni talab etadi.

Demak, psixolingvistik yondashuv didaktikaning zamonaviy rivojlanish bosqichida talabaning tafakkurini shakllantirish, shaxsiy rivojlanishini ta'minlash va ta'lim jarayonining insonparvarlik mohiyatini yuksaltirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. - Москва: Педагогика, 1999.
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. - Москва: Смысл, 2003.
3. Хомский Н. Язык и мышление. - Санкт-Петербург: Наука, 2002.
4. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам. - Москва: Просвещение, 2001.
5. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - Москва: Эксмо, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. - Toshkent, 2020.
7. Karimova Z. Psixolingvistika asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. Xudoyberganova D. Til va tafakkur: Psixolingvistik tahlil. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
9. Omonov B. Didaktika va metodika asoslari. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.